

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

PO‘LATOV XUDOYBERDI UKTAMOVICH

**KORXONALARDA SAVDO FAOLIYATI HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Po'latov Xudoyberdi Uktamovich
Korxonalarda savdo faoliyati hisobini takomillashtirish.....3

Пулатов Худайберди Уктамович
Совершенствование учета торговой деятельности на предприятиях.....27

Pulatov Xudayberdi Uktamovich
Improvement of accounting of trade activity in enterprises.....53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati
Список опубликованных работ
List of published works.....58

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

PO‘LATOV XUDOYBERDI UKTAMOVICH

KORXONALARDA SAVDO FAOLIYATI HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2799 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziyo.net) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urazov Komil Baxramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Kurbanov Ziyat Niyazovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ishanqulov Nizomjon Fayzullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Etakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi DSc.03/25.12.2024.118.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18» 10 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi, 9 A-uy, (99866) 233-18-84; faks: (99866) 233-28-38; e-mail: sies_info@edi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axbort-resurs markazida tanishish mumkin (№ 115 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi, 9 A-uy, (99866) 233-18-84; faks: (99866) 233-28-38; e-mail: sies_info@edi.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «4» 10 kuni tarqatildi.
(2025 yil «4» 10 dagi № 19 raqamli reestr bayonnomasi).



M.E.Po'latov

beruvchi ilmiy
kengash raisi, professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kоти, i.f.d., professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qo'shimdagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asrning eng muhim, qolaversa, bosh xususiyati hisoblangan raqamlashtirish savdoning yangi turlari va shakllarini, chunonchi elektron savdoni borgan sari ravnaq topishiga olib kelmoqda. “2023-yilda jahonda elektron savdo hajmi 6,2 trln. AQSH dollari, elektron savdo umumiy hajmida mobil tranzaksiyalar ulushi 63 foizni tashkil etdi. Prognozlarga ko‘ra, 2040-yilga kelib, jami savdoning 95 foizi onlayn tarzda amalga oshirilishi kutilmoqda”¹. Raqamlashtirish savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi jarayonlar, ularga oid daromadlar, sarf-xarajatlar, soliq to‘lovlari, xaridorlarga berilayotgan preferensiyalar, ular bilan hisob-kitoblar va boshqa xo‘jalik operatsiyalari hisobini tashkil qilishga yangicha ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda.

Jahonda savdoni raqamlashtirish, ushbu faoliyat hisobini raqamli texnologiyalar asosida xalqaro standartlarga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli hisob-kitob tizimlarini joriy etish, blokcheyn va sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatlashtirilgan savdo hisobini shakllantirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan uyg‘unlashgan hisob siyosati modellarini yaratish, shu asosda elektron tijorat muhitini hisob tizimi bilan integratsiyalash ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida savdo faoliyatini, chunonchi elektron tijoratni rivojlantirish, ushbu soha sub‘ektlarida buxgalteriya va soliq hisobini avtomatlashtirish, chunonchi 1C:Buxgalteriya, ERP va CRM kabi raqamli boshqaruv platformalarini keng joriy etish, soliq organlari va korxonalar o‘rtasida elektron aloqa mexanizmlarini rivojlantirish, savdo operatsiyalarini onlayn monitoring qilish tizimini kuchaytirish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish ustuvor vazifalar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi korxonalarda buxgalteriya hisobining muhim ob‘ektlari hisoblangan raqamli savdo faoliyati turlari, tovarlarni turli usullarda sotishdan olingan daromadlar, sarf-xarajatlar, soliq to‘lovlari, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotning boshqa elementlarini tasniflash, tavsiflash, tan olish, baholash, o‘lchash hamda ular hisobini soliq qonunchiligi va xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish yo‘llarini chuqur tadqiq etishni ob‘ektiv zarurat qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5813-son “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 4-oktyabrdagi PQ-5252-son “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha

¹ <https://asoworld.com/ru/blog/2023-e-commerce-industry-trend-report/>

chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-iyundagi PQ-5136-son “Ko‘chma savdo faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish va savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining - «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oxirgi yillarda raqamli savdo faoliyati turlarini rivojlantirish, shuningdek ushbu faoliyat hisobini soliq qonunchiligi va xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar И. Успенский, А. Юрасов, Э. Илайес, Д. Шнайдер, Yi-Bo Zhao, К. Стеффано, Э. Жуанито., Б. Хоосеин, М. Марчук, С. Варламов, М. Куберь, Н. Иванова, В. Бородина, А. Башарина, А. Черненко va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan².

O‘zbekistonda savdo faoliyatini rivojlantirish, soha sub’ektlarida soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi, tahlil va auditning dolzarb masalalari iqtisodchi olimlar R. Ayupov, B. Abdulkarimov, B. Bolibekov, A. Fattaxov, F. Isaev, S. Komilova, M. Nuralieva, M. Pardayev, Z. Kurbanov, A. Raximova, G. Solieva, S. Tashnazarov, D. Turdibaev, M. Yuldashev, N. Usmanova, K. Urazov, K. Urazaliev, K. Xotamov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

² Успенский И.В., Интернет-маркетинг, Учебник.- СПб.: Изд-во СПГУЭиФ, 2003 г.; Юрасов А., Основы электронной коммерции, уч.из Tempus, 2016 г.; Илайес Э., Электронная коммерция, Практическое руководство, из. ДиаСофтЮП, 2002 г.; Шнайдер Д., Метакапитализм и революция в электронном бизнесе. Каками будут компании в XXI веке. Альпина Паблишер. 2001 г.; Yi-Bo Zhao, «Environmental benefits of electronic commerce over the conventional retail trade? A case study in Shenzhen, China», Science of The Total Environment 8 May 2019.; Стеффано К., Жуанито Э., The E-Commerce Book, Building the E-Empire, eBook ISBN: 9780080518800, October 16, 2000;Хоосеин Б., Electronic Commerce, eBook ISBN: 9780080505299, August 23, M, Марчук, С.Варламов Бухгалтерский учет в торговле, Питер, 2013, М.А. Куберь. Учет в торговых организациях : учебное пособие– Персиановский : Донской ГАУ, 2018. – 144 с, Иванова Н. В. Бухгалтерский учет на предприятиях торговли : учеб. Пособие, 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательский центр «Академия», 2013. - 256 с. Бородина, В.Р. Бухгалтерский учет в оптовой и розничной торговле: Учебник и практическое пособие. – М.: ЗАО Книжный мир, 2009. – 407 с. //Электронная библиотечная система «Университетская библиотека онлайн»[Электронный ресурс].-Режим доступа:wwwURL:http:// www.biblioclub.ru/-22.11.2012 Башарина, А.В. Бухгалтерский и налоговый учет на малых предприятиях: учебное пособие / А.В. Башарина, А.Ф. Черненко. - Ростов - н/Д: Феникс, 2011 - 317с

³ Аюпов Р., «Электрон тижорат асослари», электрон китоб, 2020 й. <https://kitobxon.com/uz/kitob/elektron-tijorat-asoslari>; Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик. 1-қисм. – Т.: Фан ва технология, 2007, 39-бет.; Bolibekov B.O. Savdo-tijorat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etishni takomillashtirish: iqtisod fan. nom... diss. avtoref. – Т., 2005. – 24 б.; Фаттахов А.А. Рыночное механизма и интенсификация оптовой торговли. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2002.; Ф.Исаев, С. Комилова, Электрон тижоратни солиққа тортишининг назарий асослари // Ж.: Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, 2024, ; 3, 296-304 б.; Нуралиева М., «Электрон тижоратда молиявий хизматлар самарадорлигини ошириш», 2022, <https://oak.uz/pages/7131>; М. Q. Pardayev va boshq. Funktsional qiymat tahlili : o'quv qo'llanma - Toshkent : Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. - 176 b. – 500 Qurbonov Z.N. Soliqlar hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari iqtisod fan. dok... diss. avtoref. – Т.: ВМА, 2008; Рахимов А., «Электрон тўлов тизимлари ва уларнинг ахамияти», <http://library.ziynet.uz/ru/book/8216>, 2014; Солиева Г.А. Ўзбекистонда китоб савдосининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш омиллари. 08.00.05 – Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёти ихтисослигидан иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, СамИСИ, - 2018. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International

Shu bilan birga, mazkur ishlarda hozirgi paytda buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlari hisoblangan raqamli savdo faoliyati turlari, ulardan olinayotgan daromadlar, sarf-xarajatlar, soliq to'lovlari, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotning boshqa elementlarini tasniflash, tavsiflash, tan olish, baholash, o'lchash hamda ular hisobini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish yo'llari, jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan elektron savdo, elektron tijorat, onlayn savdo, marketpleys bo'yicha hisob-kitoblarni hisobning kompyuterlashtirilgan tizimlari asosida takomillashtirish bo'yicha to'plangan ilg'or ilmiy-texnik yutuqlar va tajribalarni mamlakatimizda keng tadbiiq etish yo'llari chuqur tadqiq etilmagan. Mazkur muammolarning yangicha ilmiy yondashuvlarni talab etayotganligi ushbu tadqiqot mavzusini tanlashga hamda uning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarda savdo faoliyati hisobini xalqaro standartlar va zamonaviy AKT dasturlari asosida yuritish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalar savdo faoliyati zamonaviy turlarining mohiyati va hisob siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarini ochib berish, shuningdek ularning hisob ob'ektlari sifatidagi ta'riflari, tasniflash va tan olish asoslarini takomillashtirish;

korxonalar savdo faoliyati hisobining me'yoriy - huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi milliy standartlarning nomlanishi va mazmuni bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish hamda transformatsiyalash yo'llarini asoslash;

zamonaviy texnika va texnologiyalar biznes jarayonlariga keng qo'llanilayotgan hozirgi sharoitda ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar harakati hisobini "xarid - sotuvga tayyorlash - sotish" jarayonlari zanjirida uzluksiz tizim asosida yuritishga imkon beruvchi 3 bosqichli modeliga o'tishni asoslash, shuningdek ushbu modelning har bir bosqichida hisobga oid ishlar tarkibi hamda ular bajarilishini ta'minlash vositalari va dastaklarini belgilash;

savdo korxonalarini hisob siyosatiga tovarlar ta'minoti jarayonini tizimli ravishda aks ettiruvchi maxsus schyotlarni kiritish hamda ushbu schyotlarni tovarlar xaridiga sarflarni tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlar asosida yuritish

Financial Reporting Standards). Darslik – T. "Iqtisod-Moliya", 2019. Турдибоев Д., «Электрон тижорат тизимлари ва уларнинг аҳамияти», <http://library.ziyounet.uz/uz/-book/80012>, 2016; Юлдашев М., «Жаҳон иқтисодиётига кириш шaroitida Ўзбекистонда электрон тижорат тизимининг ривожланиши», и.ф.н.лиги диссертацияси, Фанлар академияси, 2005; Н. М.Усманова. Китоб савдосини самарали ташкил қилишдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича айрим тавсиялар // Сервис. – С., 2023. №2. – Б.87-92. (08.00.05; №20), Уразов К.Б. Савдода бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш.–Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004.–336 б.; Уразалиев К., «Электрон тижорат ва уни солиққа тортиш масалалари». Диссертация. 2019 й.; Ҳотамов К.Р.» Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш» диссертация и.ф.д., Т.: 2016.136 б;

orqali ular xarid va sotish tannarxini uzluksiz tizimda hisobga olishning uslubiy tartiblarini takomillashtirish;

savdo korxonalarida hisob siyosatiga tovarlarni sotishga tayyorlash jarayoni va unga qilinadigan sarflarni hisobga olishning uslubiy tartiblarini takomillashtirish;

“raqamli naqd savdo”, “raqamli nasiya savdo” va “UzPost bo‘limlari orqali raqamli savdo” turlari bo‘yicha savdo tushumi va tovarlar qaytarilishini xalqaro standartlar talablari asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish;

savdo korxonalarida savdo ustamalaridan chegirmalar, bonuslar va keshbeklarni xalqaro standartlar talablari asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish;

tovar nobudgarchiliklari va ular qardsizlanishini xalqaro standartlar asosida hisob-kitob qilish, hisob va hisobotda aks ettirish tartiblarini takomillashtirish;

respublikamizda savdo faoliyati hajmini unga ta‘sir qiluvchi omillarning iqtisodiy-matematik tahlili asosida 2026 yilgacha bo‘lgan davr uchun prognozini ishlab chiqish;

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Samarqand shahridagi an‘anaviy va raqamli savdo faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik sub‘ektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib korxonalarining zamonaviy savdo faoliyati turlari hisobini ilmiy-nazariy, me‘yoriy-huquqiy va tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, kuzatish, o‘lchash, guruhlash, taqqoslash, baholash, inventarizatsiya, hujjatlashtirish, matematik dasturlash usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra zamonaviy texnika va texnologiyalarni tadbirkorlik sub‘ektlari biznes jarayonlarida qo‘llash natijasida vujudga kelgan raqamli savdo faoliyati turlarining “raqamli savdo”, “raqamli nasiya savdo”, “raqamli UzPost bo‘limlari orqali savdo”, “raqamli ombor (terminal) orqali savdo”, “raqamli birja savdosi” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni ularning hisob yuritish uchun muhim rol o‘ynovchi tavsifiy belgilari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirilgan holda takomillashtirilgan;

savdo korxonalarida hisob siyosatiga maxsus 1520 - “Tovarlarni xarid qilish va boshqa manbalardan kirim qilish” schyotini kiritish, har bir tovarning markirovka identifikatsion kodi (MIK) bo‘yicha maxsus “Tovar tannarxi (kirim bahosi) va sotish bahosi hisob-kitobi”ni tuzish, kompyuter ma‘lumotlar bazasida “Tovarlar xarid va sotish narxlarini klassifikatori”ni Smart post tizimi asosida yuritish hamda doimiy yangilab borish orqali tovarlar kirimi hamda ular hisobini tannarxi va sotish baholarida yuritish taklifi asoslangan;

amaldagi 9410 - “Sotish xarajatlari” schyotini “Tovarlarni sotishga tayyorlash va sotish xarajatlari”, mos ravishda “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”ning “Sotish xarajatlari” nomli 050-satrini “Tovarlarni sotishga tayyorlash va sotish xarajatlari” deb nomlash hamda mazkur xarajatlarning takomillashtirilgan tarkibidan foydalanish taklifi ishlab chiqilgan;

ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar harakati hisobini “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari zanjirida uzluksiz tizim asosida yuritishga imkon beruvchi uch bosqichli modeli orqali hisob ishlarini jarayonlar kesimida aniq belgilash hamda savdo faoliyati jarayonlarini boshqarishda hisob axborotlarining rolini oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlari ta’riflari, tasniflash va tavsiflash asoslarini takomillashtirish orqali buxgalteriya hisobi fani va amaliyoti yangicha nazariy bilim va uslubiy yondashuvlar bilan boyitilgan;

BHMSlarni MHXSlariga muvofiqlashtirish va transformatsiyalash, hamda xalqaro standartlarda belgilangan tartib-qoidalarni korxonalar savdo faoliyati hisobi amaliyotida qo‘llash yo‘nalishlari belgilangan;

savdo korxonalarida hisob siyosatiga “raqamli savdo”, “raqamli nasiya savdo”, “raqamli UzPost bo‘limlari orqali savdo”, “raqamli ombor (terminal) orqali savdo”, “raqamli birja savdosi”dan tushumlar va sotish tannarxini hamda savdo ustamalaridan chegirmalar, bonuslar va keshbeklarni tizimli aks ettirishga mo‘ljallangan schyotlarni kiritish orqali ularni hisob va hisobotda aks ettirish uslubiyati MHXS talablariga muvofiqlashtirilgan;

tovarlar nobudgarchiliklari va ular qardsizlanishini xalqaro standartlar asosida hisob-kitob qilish, hujjatlashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish tartiblari takomillashtirilgan;

respublikamizda zamonaviy chakana savdo faoliyati hajmi unga ta’sir qiluvchi omillarning iqtisodiy-matematik tahlili asosida 2026 yilgacha bo‘lgan davr uchun prognozlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyaning ilmiy xulosasi va amaliy takliflaridan raqamli savdo faoliyati turlarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi va hisob va hisobot tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda keng ko‘lamda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan tavsiyalardan raqamli savdo faoliyati turlarini yanada jadal rivojlanishi, hisob va hisobotni soliq qonunchiligi va xalqaro standartlar asosida yuritish normativ-uslubiy hujjatlar, uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilishida, shuningdek oliy o‘quv yurtlarida “Elektron tijorat”, “Savdo iqtisodiyoti”, “Moliyaviy hisob”, Buxgalteriya hisobi va audit” fanlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda o‘qitish jarayonida foydalanishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonalarda savdo faoliyati hisobini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra zamonaviy texnika va texnologiyalarni tadbirkorlik sub'ektlari biznes jarayonlarida qo'llash natijasida vujudga kelgan raqamli savdo faoliyati turlarining "raqamli savdo", "raqamli nasiya savdo", "raqamli UzPost bo'limlari orqali savdo", "raqamli ombor (terminal) orqali savdo", "raqamli birja savdosi" tushunchalarining iqtisodiy mazmunini ularning hisob yuritish uchun muhim rol o'ynovchi tavsifiy belgilari hamda o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirilgan holda takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Buxgalteriya hisobi va audit" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2023-yil 10-noyabrdagi 4-sonli buyrug'i). Natijada, talabalar va amaliyotchilarda raqamli savdo faoliyati turlarining hisob ob'ektlari sifatidagi ta'rifi, tasnifi va ularni hisob siyosatiga ta'siriga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar boyishiga erishilgan;

savdo korxonalarini hisob siyosatiga maxsus 1520 - "Tovarlarni xarid qilish va boshqa manbalardan kirim qilish" schyotini kiritish, har bir tovarning markirovka identifikatsion kodi (MIK) bo'yicha maxsus "Tovar tannarxi (kirim bahosi) va sotish bahosi hisob-kitobi"ni tuzish, kompyuter ma'lumotlar bazasida "Tovarlarni xarid va sotish narxlarini klassifikatori"ni Smart post tizimi asosida yuritish hamda doimiy yangilab borish orqali tovarlar kirimi hamda ular hisobini tannarxi va sotish baholarida yuritish taklifi Samarqand viloyatidagi "Samarqand dori-darmon" AJ, "Muborak Dunyo Group" MChJ, "Bardavomiy biznes" MChJ, "TDN Power 666" va "Davr Texno" MChJlar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 31-iyuldagi № 06-05-33-8464-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu korxonalarda moliyaviy hisobotni xalqaro amaliyotdagi moliyaviy hisobot shakllariga transformatsiyalashda foydalanilib, raqamli savdo faoliyati turlari va ular natijalarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda real aks ettirish imkonini bergan;

amaldagi 9410 - "Sotish xarajatlari" schyotini "Tovarlarni sotishga tayyorlash va sotish xarajatlari", mos ravishda "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ning "Sotish xarajatlari" nomli 050-satrini "Tovarlarni sotishga tayyorlash va sotish xarajatlari" deb nomlash hamda mazkur xarajatlarning takomillashtirilgan tarkibidan foydalanish taklifi Samarqand viloyatidagi "Samarqand dori-darmon" AJ, "Muborak Dunyo Group" MChJ, "Bardavomiy biznes" MChJ, "TDN Power 666" va "Davr Texno" MChJlar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 31-iyuldagi № 06-05-33-8464-son ma'lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida markaziy ombor va chakana savdo shahobchalarida tovarlar xarakterini qat'iy ravishda ularning markirovka identifikatsiya kodlari (MIKlari) kesimida ham kirim, ham sotish baholarida tizimli hisobga olishga, sotishdan olingan daromadlarni, sotilgan tovarlar tannarxini, yalpi foydani yoki savdo ustamalarini summalarini, olingan va berilgan savdo chegirmalarini, tovarlarni qaytarilishi, nobudgarchiliklari va qadrsizlanishini avtomatik hisob-kitob qilishga, shuningdek sotilmagan tovarlar qiymatini ham xarid, ham sotish narxlarida hisobda aks ettirishga imkon bergan;

ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar harakati hisobini “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari zanjirida uzluksiz tizim asosida yuritishga imkon beruvchi uch bosqichli modeli orqali hisob ishlarini jarayonlar kesimida aniq belgilash hamda savdo faoliyati jarayonlarini boshqarishda hisob axborotlarining rolini oshirish taklifi Samarqand viloyatidagi “Samarqand dori-darmon” AJ, “Muborak Dunyo Group” MChJ, “Bardavomiy biznes” MChJ, “TDN Power 666” va “Davr Texno” MChJlar amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 31-iyuldagi № 06-05-33-8464-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tovarlar xarakati hisobini yuritishning ushbu modeli hisob ishlarini ta’minot, sotuvga tayyorlash va sotish jarayonlari kesimida aniq belgilash hamda buxgalterlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash, tavsiya etilgan schyotlar tizimini qo‘llash savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi jarayonlar va ular natijalari to‘g‘risidagi axborotlarni har bir bosqich kesimida shakllantirishga hamda nazorat qilish imkonini berib, hisob va hisobot axborotlarini savdo faoliyati jarayonlarini boshqarishdagi rolini kuchayishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan – jami 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan: Bitta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 6 ta maqola chop etilgan.


Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korxonalar savdo faoliyati buxgalteriya hisobining ilmiy-nazariy va me’yoriy-huquqiy asoslari**»ga bag‘ishlangan. Unda savdo faoliyati zamonaviy turlarining buxgalteriya hisobi ob’ektlari sifatidagi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi ta’riflari ishlab chiqilgan; raqamli savdo faoliyati alohida turlari bo‘yicha korxonalar hisob yuritish siyosatiga qo‘yilayotgan asosiy talablar ilmiy asoslangan; respublikamizda savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobi milliy standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning zarurlari va asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

Iqtisodiyotni tobora erkinlashtirish va raqamlashtirish sharoitida korxonalarda savdo faoliyatining yangicha nom va maqomga ega bo'lgan turlari, rejimlari va shakllari vujudga keldi, ularning asosiylari biz tomonimizdan 1-rasmda tizimlashtirilgan.



1-rasm. Iqtisodiyotni tobora erkinlashtirish va raqamlashtirish sharoitida savdo faoliyati turlari, rejimlari va shakllari.⁴

Savdo faoliyatining nomlari yuqorida keltirilgan turlari amalga oshirish joyi, texnika va texnologiyasi, sotiladigan tovarlar miqdori, sotish rejimi, shakli, xaridorlarning ishtiroki, savdo preferensiyalari, mijozlar bilan hisoblashishlarning turlari, soliqqa tortilishi, hujjatlashtirilishi va boshqa jihatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi, aynan shu jihatlari bo'yicha ular buxgalteriya hisobining o'ziga xos ob'ektlari hisoblanadi. Dissertatsiya ishimizda zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlarining hisob ob'ektlari sifatida hamda ularning hisob yuritish uchun muhim rol

⁴ Muallif ishlanmasi

o‘ynovchi tavsifiy belgilari va xarakterli xususiyatlarini o‘zida ifodalovchi quyidagicha ta’riflari ishlab chiqildi.

Chakana savdo – bu tovarlarni xaridorlarga gipermarket, supermarket, unvermag, minimarket, oziq-ovqat do‘koni, ixtisoslashgan do‘kon, avto do‘konlar, pavilonlar, palatkalar orqali oflayn va onlayn rejimlarda donalab hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati⁵.

Ulgurji savdo – bu tovarlarni xaridorlarga bozor, ulgurji baza, universal baza, ixtisoslashgan baza, terminal, ombor, sovutgich, birja orqali oflayn va onlayn rejimlarda katta partiyalarda hisob-kitoblarni pul ko‘chirish yo‘li orqali (yoki naqdsiz pulga) amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati⁶.

Elektron savdo – bu tovarlarni xaridorlarga b2c (uzum market), b2b (birjalar), b2g (xarid.uzex.uz), c2c (olx.uz), g2c (payme, click) formatlarda oflayn va onlayn rejimlarda donalab, katta va kichik partiyalarda hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar, mobil aloqa vositalari, pul ko‘chirish yo‘li orqali (yoki naqdsiz pulga) amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati⁷.

Raqamli savdo – bu tovarlarni xaridorlarga zamonaviy savdo maydonlari (marketlar, birjalar, omborlar) orqali turli formatlarda oflayn va onlayn rejimlarda donalab, katta va kichik partiyalarda, hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar, mobil aloqa vositalari, pul ko‘chirish yo‘li orqali amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati.

Raqamli nasiya savdo – bu tovarlarni xaridorlarga chakana savdo korxonalarini orqali oflayn va onlayn rejimlarda donalab hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali nasiyaga hisob-kitoblarni sotish shartnomalari shartlari asosida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli UzPost bo‘limlari orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga UzPost bo‘limlari orqali oflayn va onlayn rejimlarda kichik partiyalarda hisob-kitoblarni individual buyurtmalar bo‘yicha naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali oldindan to‘lov shaklida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli ombor (terminal) orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga ombor (terminal) orqali oflayn va onlayn rejimlarda tuzilgan shartnomalar asosida katta partiyalarda naqdsiz to‘lov shaklida amalga oshirishga asoslangan ulgurji savdo faoliyati.

Raqamli birja savdosi – bu elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta’minlaydigan savdo faoliyati.

Dissertatsiya ishida zamonaviy savdo faoliyati turlarini hisob ob’ektlari sifatida 8 ta tasnifiy belgilari bo‘yicha tasniflash tavsiya etildi hamda ularning har

⁵ Muallif tarifi.

⁶ Muallif tarifi.

⁷ Muallif tarifi.

biri bo'yicha korxonalar hisob siyosatiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilandi (1-jadval).

1-jadval.

Zamonaviy savdo faoliyati turlarini ko'rsatuvchi korxonalar hisob siyosatiga qo'yilayotgan asosiy talablar⁸

№	Tasnifiy belgi	Tasnifiy turlari	Hisob siyosatiga ta'siri va unga qo'yiladigan asosiy talablar
1.	Savdo-sotiq amalga oshirilayotgan joyiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Ombor orqali savdo • Ochiq bozor orqali savdo • Do'kon orqali savdo 	Hisob siyosatida tovarlarni saqlash joylarida kirim va sotish baholarini, ular holati va harakatini hujjatlashtirish va hisobga olishning aniq usullarini belgilash
2.	Savdo turiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Ulgurji savdo • Mayda ulgurji savdo • Chakana savdo 	Hisob siyosatida ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo operatsiyalarini aniq tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi, ular asosida savdo tushumini hisobga olishga imkon beruvchi aniq schyotlar va buxgalterlik yozuvlarini belgilash
3.	Savdo rejimiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Oflayn savdo • Onlayn savdo 	Hisob siyosatida oflayn va onlayn rejimlardagi savdo bo'yicha daromadlar xarajatlarni shartnomalar shartlari kesimida hisobga olishga imkon beruvchi tartiblarni belgilash
4.	Savdo shakliga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli naqd savdo, • Raqamli nasiya savdo; • Raqamli UzPost bo'limlari orqali savdo; • Ombor,terminal, birja orqali raqamli ulgurji savdo 	Hisob siyosatida turli savdo shakllarida olinadigan sof tushum, sotish tannarxi, QQS, aylanmadan soliq, debitorlik va kreditorlik qarzlarni tizimli hujjatli asosda korxonalar hisob va hisobotida aks ettirish tartiblari va dastaklarini belgilash
5.	To'lov turiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Naqd pul bilan savdo; • Naqdsiz pul ko'chirish orqali savdo; • Plastik kartalar orqali savdo; • Mobil aloqa vositalari orqali savdo 	Hisob siyosatida turli savdo faoliyatidan tushumlarni to'lov turlari kesimida hisob va hisobotda aks ettirish hamda pul oqimlarini nazorat qilish tartib va dastaklarini belgilash
6.	Xaridorlarga beriladigan preferensiyalarga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Savdo chegirmalari bilan savdo • Bonusli savdo • Keshbekli savdo • Bepul yetkazib berish orqali savdo 	Hisob siyosatida savdo ustama-laridan chegirmalar, bonuslar, keshbek, bepul yetkazib berish xarajatlarini hisob-kitob qilish, hisob va hisobotda aks ettirish tartiblari va dastaklarini belgilash
7.	Soliqqa tortilishiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Umumsoliqlarga tortiladigan savdo • Aylanmadan soliqqa tortiladigan savdo 	Turli savdo faoliyati bo'yicha QQS, foyda solig'i, aylanmadan soliq to'lovlarini to'g'ri hisob-kitob qilish va hisobini yuritish talabiga javob beruvchi tartiblar va dastaklarni belgilash
8.	Soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlarga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> • Soliqdan to'liq ozod qilingan savdo • Soliqdan qisman ozod qilingan savdo • Pasaytirilgan stavkada soliqqa tortiladigan savdo 	Turli savdo faoliyati bo'yicha soliq imtiyozlarini va kechiktirilgan soliq to'lovlarini to'g'ri hisob-kitob qilish va hisobini yuritish talabiga javob beruvchi tartiblar va dastaklarni belgilash

⁸ Muallif ishlanmasi

Savdo faoliyati va uning natijalarini hisob va hisobotda aks ettirishni tartibga solib turishga aloqador bo‘lgan milliy va xalqaro standartlarning turli jixatlari – mavjudligi va mavjud emasligi, nomlanishi, tarkibi, mazmuni, metodologik tartiblar bo‘yicha bir biridan farqlanadi. Tadqiqotlarimiz natijasida amaldagi BHMSlar yuqoridagi farqli jixatlariga qarab quyidagi 3 ta guruhga ajratildi (2-jadval).

2-jadval.

Savdo korxonalarida hisob va hisobotni tartibga solib turuvchi milliy va xalqaro standartlarning farqlari⁹

Guruh t/r	Xalqaro standartlarga moslik darajasi
1-guruh	Xalqaro miqiyosdagi standartlardan nomlanishi, tarkibi va ayrim metodologik tartiblar bo‘yicha farqlanadigan BHMS (1, 2 va 4-son BHMSlar)
2-guruh	Xalqaro miqiyosda aynan shu nomlarda va mazmunda mavjud bo‘lmagan BHMSlar (3,14,15,19, 21-son BHMSlar)
3-guruh	Xalqaro miqiyosda bor, lekin shu nomlarda va mazmunda respublikamizda ishlab chiqilmagan milliy standartlar (IAS 1, IAS 12, IAS 13, IAS 36, IAS 37)

Dissertatsiyada amaldagi BHMSlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va transformatsiyalashga qaratilgan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

*Birinchi*dan, respublikamizda xuddi xalqaro miqiyosdagi IAS 1 “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” nomli va mazmundagi BHMS ishlab chiqilishi, uning tarkibiga 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ning moliyaviy hisobotga oid bandlarini, shuningdek 3-son BHMS, 14-BHMS, 15-son BHMSni to‘liq transformatsiyalash;

*Ikkinchi*dan, amaldagi 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ni IAS 8 “Hisob siyosati, buxgalterlik baholashdagi o‘zgarishlar va xatoliklar”ga to‘liq muvofiqlashtirish, shuningdek unga amaldagi 3-son BHMS “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”da keltirilgan hisob bahosidagi o‘zgarishlarni, hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdagi muhim jiddiy xatolarni tuzatishlarni hamda yoritib berish tartiblarini kiritish;

*Uchinchi*dan, amaldagi “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar” nomli 2-son BHMSni xalqaro miqiyosda tan olingan IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum” asosida qayta ishlab chiqish va tasdiqlash, unga zamonaviy raqamli savdo turlaridan olinadigan daromadlarni, savdo ustamaları va ustamadan chegirmalar, keshbek, bonuslarni, tovarlar qaytarilishini tan olish va baholash tartiblarini kiritish.

*To‘rtinchi*dan, amaldagi “Tovar-moddiy zahiralari” nomli 4-son BHMSni xalqaro miqiyosda tan olingan IAS 2 “Zahiralar”ga to‘liq muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu standartga tovarlar tannarxi va sotish baholarini aniq hisob-kitoblari hamda ularni tuzish tartiblarini kiritish.


*Beshinchi*dan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, shu jumladan savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar amaliyoti uchun o‘ta muhim bo‘lgan IAS 12 “Foydaga soliqlar”, IAS 13 “Haqqoniy qiymatni baholash”, IAS 36 “Aktivlar

⁹ Muallif ishlanmasi

qadrsizlanishi” va IAS 37 “Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” asosida ushbu nomlardagi va mazmundagi milliy standartlarni qabul qilish lozim.

Shuningdek, respublikamizning BHMSlarida savdo faoliyati hisobi bo‘yicha belgilangan quyidagi metodologik tartiblarni ham mukammal deb bo‘lmaydi: (a) uzluksiz hisob tizimida ishlayotgan ulgurji savdo korxonalarida tovarlar xaridi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni shakllantirishga mo‘ljallangan maxsus schyotni nazarda tutilmaganligi; (b) davriy hisob tizimida ishlayotgan chakana savdo korxonalarida tovarlar xaridi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni shakllantirish uchun tavsiya etilgan 9140 «Davriy hisobda TMZni sotib olish/xarid qilish» schyot mazmun - mohiyati, tizimlashtirish tartibiga ko‘ra ta‘minot jarayoni hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlarga mos va xos emasligi; (v) 21-son BHMSda tovarlarni sotuvga tayyorlash jarayonini aks ettiruvchi, shuningdek savdo tushumini raqamli savdo turlari kesimlarida tizimli aks ettiruvchi, xaridorlarga taqdim etiladigan chegirmalarning zamonaviy turlari – ustamadan chegirma, keshbek, bonuslarni aks ettiruvchi, tovarlar yo‘qotishlari va qadrsizlanishini tizimli aks ettiruvchi schyotlarning hamda ushbu schyotlarni yuritishning uslubiy tartiblarining mavjud emasligi.

Dissertatsiya ishida zamonaviy raqamli savdo faoliyati mazmunini tashkil qiluvchi tovarlarni xarid qilish, sotuvga tayyorlash va sotish jarayonlari hamda ular natijalarini tizimli uzluksiz hisobga olishning 3 bosqichli modeli tavsiya etildi (2-rasm).



2-rasm. Zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlari hisobini jarayonlar kesimida tashkil qilishning 3 bosqichli modeli.¹⁰

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Ishda respublikamizda amalda bo‘lgan 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”ga ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar harakati to‘g‘risidagi axborotlarni “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari kesimida qat’iy ketma-ketlikda tizimli shakllantirishga imkon beruvchi quyidagi schyotlarni kiritish tavsiya etildi (3-jadval).

3-jadval

Tovarlar harakati to‘g‘risidagi axborotlarni “xarid - sotuvga tayyorlash - sotish” jarayonlari kesimida qat’iy ketma-ketlikda tizimli shakllantirishga mo‘ljallangan schyotlar tizimi (tavsiya)¹¹

Schyot	Schyotning nomi	Schyot xarakteri
A. Xarid jarayoni bo‘yicha		
1520	Tovarlarni xarid qilish, xaridorlardan qaytarilishi va boshqa manbalardan kirim qilinishi	A
2910	Korxonada omboridagi tovarlar	A
B. Sotuvga tayyorlash jarayoni bo‘yicha		
2921	Chakana savdo rastalaridagi tovarlar	A
2922	Birjadagi tovarlar	A
2923	UzPost bo‘limlaridagi tovarlar	A
1620	Savdo ustamaları va ular bo‘yicha chegirmalar	KA
9411	Sotuvga tayyorlash xarajatlari	T
V. Sotish jarayoni bo‘yicha		
9021	Raqamli ulgurji sotishdan tushum	TP
9022	Raqamli chakana sotishdan tushum	TP
9023	Raqamli nasiya sotishdan tushum	TP
9024	Raqamli UzPost bo‘limlari orqali sotishdan tushum	TP
9121	Raqamli ulgurji sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9122	Raqamli chakana sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9123	Raqamli nasiya sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9124	Raqamli UzPost bo‘limlari orqali sotilgan tovarlar tannarxi	TA
9412	Sotish xarajatlari	TA
9431	Tovar nobudgarchiliklari va yo‘qotishlaridan zararlar	TA
9432	Tovarlarning qadrsizlanishidan zararlar	TA
6991	Xaridorlarga berilgan keshbeklar	P
6992	Xaridorlarga berilgan bonuslar	P
6993	Xaridorlarga savdo ustamasidan berilgan chegirmalar	P
A- aktiv, P- passiv, KA- kontr-aktiv, TP- tranzit-passiv, TA- tranzit- aktiv		

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo korxonalarida tovarlarni xarid qilish, sotuvga tayyorlash va sotish jarayonlari hisobining uslubiy tartiblarini takomillashtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobi raqamli iqtisodiyot sharoitida ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlarni xarid qilish, sotuvga tayyorlash va sotish jarayonlari hisobini xalqaro standartlar talablari asosida yuritishning uslubiy tartiblarini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

¹¹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqotlarimiz natijasida zamonaviy raqamli savdo faoliyati turlari hisobini jarayonlar kesimida tashkil qilishning 3 bosqichli modelini amaliyotga joriy etishning quyidagi mexanizmlari tavsiya etildi.

*Birinchi*dan, *xarid jarayonida* tovarlarning xarid va sotish (bozor) baholarini “Tovar-moddiy zahiralari” nomli 4-son BHMS va “Zahiralari” nomli 2-son MHXSda belgilangan quyidagi tartiblarga qat’iy amal qilingan holda shakllantirish hamda hisob-kitob qilish lozim:

$$Sb (Bb) = Xb (T) + F (U) + As + QQS \quad (1)$$

$$Xb (T) = Xn + Bx + Tx + Vx + Yux + Bxx \quad (2)$$

Bu yerda: **Sb** – sotish bahosi; **Bb**-bozor bahosi; **Xb (T)** – xarid bahosi (tannarxi); **F (U)** - foyda (ustama); **As** – aksiz solig‘i; **QQS** – qo‘shilgan qiymat solig‘i; **Xn**- tovarning xarid narxi; **Bx**- bojxona xarajatlari; **Tx**-tashib keltirish xarajatlari; **Vx**- vositachilik xarajatlari; **Yux**-yuridik xizmatlar; **Bxx**- boshqa xarid xarajatlari.

4-jadval.

Savdo korxonalarida tovarlar xarid bahosi (tannarxi)ga kiritilgan va kiritilmagan xarajat turlari tavsifi¹²

№	Tannarx elementlari	“Samar-qand-doridarmon” AJ	“Muborak Dunyo Group” MChJ,	“Bardavomiy biznes” MChJ,	TDN POWER 666”	Davr Texno” MChJ
1.	Tovarning xarid narxi	+	+	+	+	+
2.	Bojxona xarajatlari	+	+	-	-	+
3.	Tashib keltirish xarajatlari	+	-	-	-	+
4.	Vositachilik xarajatlari	+	+	-	-	-
5.	Yuridik xizmatlar	+	-	+	-	-
6.	Xizmat safari xarajatlari	-	-	-	-	-
7.	Sertifikatlash xarajatlari	+	+	+	+	+
8.	Karantin xizmatlari	+	+	+	+	+
9.	Sotishga tayyorlash xarajatlari	-	-	-	+	+

4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot ob’ektlari sifatida tanlangan savdo korxonalarini amaliyotida milliy va xalqaro standartlarda belgilangan ushbu talablarga hamma vaqt ham amal qilinmasdan qolinmoqda. Chunonchi, “Muborak Dunyo Group” MChJ, “Bardavomiy biznes” MChJ va TDN Power 666” da bojxona to‘lovlari, tashib keltirish xarajatlari, vositachilik xarajatlari, yuridik xizmatlar, o‘rganilgan barcha korxonalarda tovarlar xaridi bilan band bo‘lgan xodimlarning safar xarajatlari tovarlar xarid qiymatiga (tannarxiga) olib borilmagan, ular korxonaning sotish, boshqarish va boshqa operatsion xarajatlari (9410, 9420, 9430 schyotlar) olib borilgan. “TDN Power 666” va “Davr Texno” MChJda tovarlarni sotishga tayyorlash xarajatlari tovarlar xarid qiymatiga (tannarxiga) kiritib yuborilgan. 4-son BHMS va 2-son MHXSda keltirilgan metodologik tartibga to‘liq amal qilmaslik mazkur savdo korxonalarini


¹² Izlanishlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

balansida tovarlar holatini, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda sotilgan tovarlar tannarxi ko'rsatkichini noreal aks ettirilishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, 4-son BHMSda korxonalar tomonidan barcha tovarlar bo'yicha "Tovar kirim bahosi (tannarxi) va sotish (bozor) bahosi hisob-kitobi" hujjatini yaxlit shaklini va uni tuzish tartibini belgilash maqsadga muvofiq. Ishimizda ushbu hisob hujjatining namunaviy shakli hamda uni tuzish tartibi tavsiya etilgan. Mazkur hujjatni savdo korxonalar tomonidan tuzish tartibini 4-son BHMSda belgilanishi respublikamizning soliq kodeksi (248-modda) bo'yicha budjetga undiriladigan QQS, foyda va aylanmadan soliqni hisob-kitobida soliq bazasi sifatida olingan bozor narxlaridan past bo'lmasligini ta'minlashning, tadbirkorlarni soliqqa tortishda adolatlilik, bir xillik, teng raqobat muhitini yaratish tamoyillariga erishishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, biz tomonimizdan tavsiya etilgan hisob-kitob asosida savdo korxonalarida barcha tovarlarning markirovka identifikatsiya kodlari (MIK) kesimida ularning xarid narxlari (tannarxi) va sotish narxlari reestri bazasini zamonaviy AKT vositalari asosida shakllantirish hamda ularga amal qilish lozim. Ishimizda ushbu reestrning takomillashtirilgan shakli hamda uni yuritish tartiblari tavsiya etilgan.

To'rtinchidan, zamonaviy Smart post tizimi, NKM fiskal tizimi, mobil soliq ilovalari va 1C: Buxgalteriya" dasturlarini o'zaro integratsiyalashgan modelni yaratish va uni qo'llashga o'tish zarur. Ishimizda ushbu integratsiyalashgan model¹³ ishlab chiqildi, uning tarkibiy elementlari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Savdo faoliyati hisobini zamonaviy AKTlar va amaliy dasturlarning integratsiyalash tizimi asosida yuritish modeli.¹⁴

¹³ Mazkur modelga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Patentlik agentligi tomondan muallif huquqi olingan №DGU 52808

¹⁴ Muallif ishlanmasi

Beshinchidan, ulgurji va chakana savdo korxonalarini uchun alohida-alohida hisob yuritish tizimlari sifatida belgilangan davriy va uzluksiz hisob tizimlarini bekor qilish va uning o‘rniga barcha maqomdagi savdo korxonalarida tovarlarning yaxlit uzluksiz hisob tizimiga o‘tkazish tartibini belgilash lozim. Chunki, zamonaviy Smart post tizimi, NKM fiskal tizimi, mobil soliq ilovalari va 1C: Buxgalteriya” dasturlarini o‘zaro integratsiyalashgan modeliga o‘tish chakana savdo korxonalarida tovarlar xarakatini ularning MIKlari kesimida ham kirim, ham sotish baholarida uzluksiz tizimli hisobga olish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishimizda tovarlarning xarid narxlarini (tannarxi)ni 4-son BHMS va 2-son BHXSda belgilangan talablarga to‘liq mos ravishda shakllantirish maqsadida ularni xaridiga doir barcha xarajatlarni maxsus 1520 “Tovarlarni xarid qilish, xaridorlardan qaytarilishi va boshqa manbalardan kirim qilinishi” schyotida tizimli aks ettirish tavsiya etildi. Ushbu schyotni yuritishning biz tomonimizdan tavsiya qilingan uslubiy tartibi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

Tovarlar kirimi va ular kirim qiymati (tannarxi)ni aniqlash uchun mo‘ljallangan 1520 "Tovarlarni xarid qilish va boshqa manbalardan kirim qilish" schyotini yuritishning tavsiya etilayotgan uslubiy tartibi¹⁵

T/r	Operatsiya mazmuni	Korresponden-siyalanadigan schyotlar		Summa	Hisob yozuviga asos
		Debet	Kredit		
1.	Tovarlarning MIK kesimida xarid narxida kirimiga	1520	6010	150 000 000	Shartnomalar, schyot-fakturalar
2.	MIK kesimida kirim qilingan tovarlar narxiga kiritilgan bojxona to‘lovlari summasiga (QQSsiz)	1520	6990	15 000 000	DBD, invoslar
3.	MIK kesimida kirim qilingan tovarlar narxiga kiritilgan transport xarajatlariga (QQSsiz)	1520	6990	2 000 000	Shartnomalar, schyot-fakturalar, TTN
4.	MIK kesimida kirim qilingan tovarlar narxiga kiritilgan boshqa xarid xarajatlari (vositachilik, yuridik va boshqa xizmatlar xarajatlari, safar xarajatlari kabilar) summasiga (QQSsiz)	1520	6990	1 500 000	Shartnomalar, schyot - fakturalar, bo‘nak hisobotlari va boshqalar
5.	Jami xarid qilingan tovarlarning xarid qiymati (tannarxi) bo‘yicha kirimiga	2910	1520	168 500 000	

Mazkur tavsiya etilgan tartib, bir tomondan, tovarlar xarid jarayonining to‘liq tizimli aks ettirishga, ikkinchi tomondan esa, ushbu jarayon natijasi bo‘lgan tovarlarning xarid qiymatini (tannarxini) hisob va hisobotda real aks ettirilishiga imkon beradi.

Sotuvga tayyorlash jarayoni bo‘yicha tovarlarni sotishga tayyorlashga doir xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni hisob tizimidan bevosita olish imkoniyatlarini oshirish maqsadida, ishimizda amaldagi 9410 “Sotish xarajatlari” schyotini

¹⁵ Muallif ishlanmasi

